

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

“MUSIQA TA'ILIMI “KAFEDRASI

Fan : “ Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi “

KURS ISHI

Mavzu: “O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorat.”

Bajardi: 401-guruh talabasi Sh.Shoniyozov

Ilmiy rahbar : B.Boltayev

Samarqand - 2017

O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorat.

Reja

Kirish.

Asosiy qism.

- 1.Musiqa madaniyati o'qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati
- 2.Musiqa o'qituvchisining faoliyati.
- 3.Musiqa o'qituvchisining dars faoliyatini tuzilishi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

Kirish

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan xar tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora –tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb ehlon qilingani munosabati bilan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi tasdiqlanishi va unda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi

Bolalar va yoshlarning xuquq va manfaatlarini ximoya qilishga,ularni barkamol rivojlantirishning xuquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonqchilik xamda mehyoriy xujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish."Sog'lom ona- sog'lom bola" dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish,onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muxofaza kilish tizimini takomillashtirish, prfilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustivor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash,sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalashni kuchaytirish. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan isloxotlarimizning samaradorligi avvalo xalq mahnaviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, anhanalarimizning saqlanishi madaniyat va sanhat, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'likdir" - deb tahkidladi.

¹ I.A.Karimov Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimizdir.Xalq so'zi,2010yil 28 yanvarg'."Barkamol avlod yili" davlat dasturi tug'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak mahnaviyat - yenigilmas kuch" (T."Mahnaviyat", 2008, 176 bet) nomli asarining nashr etilishi hech shubhasiz mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, mahnaviy-mahrifiy hayotida buyuk voqea bo'ldi. Muallifning mahnaviyat haqidagi, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati to'g'risidagi kuzatishlari, fikr va xulosalarining mahsuli bo'lgan ushbu asar xar tomonlama teran ilmiy va hayotiy tajribalarga asoslanganligi bilan keng jamoatchilik ehtiborini o'ziga tortmoqda. Asarda butun dunyoni to'lqinlantirib turgan dolzarb muammolar, oldimizda turgan vazifalar va ularning hal qilinishi nafaqat mamlakatimiz yoki Markaziy Osiyo xalqlari uchun, balki butun dunyo xalqlarining taqdiriga, hayotiga ham bevosita daxldor ekanligi xususida atroflicha fikr yuritiladi va ularga mos baho beriladi. Davrimizning o'tkir ijtimoiy-siyosiy, mahnaviy-mahrifiy va ahloqiy muammolari teran tahlil qilingan bu asarda nafaqat mintaqamiz xalqlarini, balki bashariyatni ham milliy-mahnaviy qadriyatlari, urf-odatlarini va anhanalarini hurmatlash, qadrlashga dahvat etadi, insoniyat uchun eng muhim boylik - mahnaviyatning mahno-mazmuni, uning millat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama keng va chuqur asoslab beriladi. Muhtaram Prezidentimiz ushbu asarda tahkidlaganidek, mustaqillik tufayli yurtimizda milliy mahnaviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, amalga oshirilayotgan ulkan ishlar bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritadi. Murakkab globallashuv jarayonlari ketayotgan hozirgi davrda mahnavit sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz mahnaviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar tahsiridan saqlash, himoya qilish masalalariga katta ehtibor qaratiladi. Yoshlarimizning mahnaviyat olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan shakllantirishga erishish lozimligi uqtiriladi. Hamda bu borada musiqadan foydalanish katta tahsir kuchiga ega ekanligi ehtirof etiladi. SHuning uchun ham "Musika madaniyati" mashg'ulotlariga ahamiyat berish, undan unumli foydalanish, o'quvchilar ongida madaniy qadriyatlar, musiqiy meros, ming yillar mobaynida yuzaga kelib, kamol topib, rivojlanib, takomillashib borayotgan anhanalar, urf-odatlarini shakllantirish muhim ekanligi tahkidlanadi. Mustaqillik sharoitida milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan, milliy tarbiya, maktablarimizda o'sib kelayotgan avlodni ona-Vatanga cheksiz muhabbat, uni o'sishi, taraqqiyoti yo'lida xarakat qiluvchi insonlarni tarbiyalab yetishtirish kabi muammolar xam vujudga kelmoqda. "Har bir insonning, - deb tahkidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish

kerakki. Ular oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak".

Xozirgi paytda mamlakatimizda bozor munosabatlarining, demokratik-xuquqiy davlatning shakllana borishi bilan ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tilmoqda. SHusababli yangi jamiyatni qanday tuzilganligi,uning tarkibiy qismlari bir-birlari bilan o'zaro qanday bog'langanligi, kishilarning axloqiy, siyosiy, diniy, estetik xuquqiy dunyoqarashlari qanday tarkib topadi degan masalalariga "SHaxs va jamiyat" fani shu muommolarni hal etishga,o'quvchilada ularni qo'rshab turgan ijtimoiy voqealikning murakkab jarayonlarida bevosita bilim ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.Mazkur vazifalarni hal etishda musiqa o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim berish moxiyatidan xabardorliklari xamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shungdek ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijobiy yondashuvi muxim axamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

1. Musiqa madaniyati o'qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati.

*Diplomga ega bo'lish
bu hali tom mahnodagi
ziyoli odam emas, ziyoli
odam o'z tafakkur savi-
yasi, pok yuragi, ichki
madaniyati bilan mutlqo
bo'lakcha inson bo'ladi .*

I.A.Karimov

Hozirgi kunda ta'lim tizimida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni maktab amaliyotiga tatbiq etishning yakuni bosqichi davom etmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning taxlili va ta'lim tizimidagi jaxon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy- siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning yuqori sifat ko'rsatkichini tahminlash, ta'lim mazmunini Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirishga kirishildi. Barcha o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini o'quv jarayonida qo'llab va o'quv yili yakunida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar shu standartlarga mosligini aniqlash bo'yicha maktab, tuman, shahar, respublika darajasida monitoring ishlari olib borilmoqda.

Milliy dasturda ko'zda tutilgandek, zamonavaiy axborot texnologiyalari va kompg'yuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan tahminlash rivojlanib boradi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlanadi. O'quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammalashib, o'quv jarayoniga tatbiq etib boriladi.

Mahlumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir – biri bilan uzviy aloqada bo'lib, ulardan birortasini ehtibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani (qaysi mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchimiz yoki o'rgatmoqchimiz, degan savol tug'iladi.

O'rgatish ham, o'rganish ham ularning ohirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog'liq.

Har xil mazmundagi matnlarni o'ziga xos usullar bilan o'zlashtirish qabul qilinganligi uchun o'rgatishning qanday bo'lishi uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi, yahni o'rgatuvchiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, didaktik tafakkur bu - o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakillari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

SHu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Xozirga kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standarlari o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim – tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun uning ilmiy – amaliy mehanizmini yaratish zarur.

SHuni ehtirol etish kerakki, hali respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarni to'plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaradorligini tajriba-sinovlardan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mehanizm) shakillantirilmaganligi uchun, biz o'qituvchi amaliyotchilarimizning ijodiy faoliyatlariga yordam berish maqsadida shu qo'llanmani yaratishga qo'l urdik. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o'qib o'rganishni tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'rganish, kuzatish, nazorat qilish qilish
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha seminarlar, treninglar o'tkazish;
- pedagogik texnologiyalarni to'plash, tanlash, qo'llash bo'yicha tegishli mahlumotlar bankini yaratish, ularni tahlil qilish asosida o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash tajribalarini tahlil etish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiya qo'llanmalar yaratib, ta'lim muassasalariga yetkazish.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Ana shularni nazarda tutgan holda, ushbu qo'llanmada o'quvchiga bilim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularni o'quv jarayoniga joriy etish mexanizmini ochishga harakat qildik.

Ta'lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yahni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim – tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

O'tgan asrning 50 – yillari o'rtasidan 60 – yillargacha «ta'lim texnologiyasi» atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70 – yillarda «pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalangan.

80 – yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompg'yuterli va axborot texnologiyalarni yaratishga aytilgan.

«Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati».

SHu bilan birga, pedagogik texnologiyaning qo'llamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta tahriflarini keltirishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi mahno – mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy – uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya – mahlumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha tahsir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi konunga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim Joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning mahnaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga,

ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy sanhat, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan boglanadi. Barcha o'quv fanllari qatori musiqiy ta'limda ham DTSlarning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va Sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom dostonlar va bugungi zamonaviy musiliyatda o'z aksini topdi. Musiqa sanhatining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qiladi. Azaldan SHark, jumladan, o'zbek musika ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird anhanalari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musika pedagogikasi, professional musika ijodkorlari, musika ijrochilari (sozanda, xonandalar) katta ashulachilar, makomchilar, dostonchilar asarlarning elementar asoslarini o'rganish mehyorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tassavur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni tahminlaydi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila Oladigan, umumbashariy, musika boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musika sanhatini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musika faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib hisoblaniladi. SHuningdek, o'quvchilar Musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musika sanhatiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musika sanhatiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy extiyojlarini qondirish.

Musiqa ta'lim – tabiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. SHu bilan bir qatorda jaxon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molillik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishni tahminlaydi.

Jamiyat taraqqiyotning hech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradiyu u tabiiy, tarixiy jarayondir. SHuning uchun ham muvsiqa madaniyati o'qituvchisi, o'quvchilarni mahnaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatining shakitllantirishi, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini

amalga oshirishini, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakillantirib berish lozimdir. SHuning bilan musiqa madaniyati o'quv predmetini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tikaziladigan barcha o'quv predmetlari jumladan: adabiyot, tasviriy sanhat, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lashning biligshi kerak.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishi kerak. SHu bilan birga musiqa madaniyati o'qituvchisi yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetishi lozim bo'ladi. SHuningdek, jahon xaqklarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganishi yosh avlodni halqaro nufuzga moyillik bo'lgan durdonalardan bahramand bo'lishiga tayyorlashi kerak. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfatlari tarbiya jarayoniga tahsir etishini nazarda tutadi. Musiqa madaniyati o'kituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'lim – tarbiya sohasida ortirilgan tarjimalarni o'rganishi lozim. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. CHunki tajribalrni o'rganish jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, interv'yu olish, anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarini o'rganish metodlardan foydalaniladi, masalan: kuzatishda o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani mahlum maqsadda kelib chiqqan xolda kuzatish bayonnomasini olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib boradi.

Suhbat esa fakt – dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi.

«Suhbat mustaqil yoki yordamchi metod sifatida qo'llaniladi».

Anketalashtirish material to'plash maqsadida amalga oshiriladi. Mahoratli o'kituvchi hamda o'kuvchilar kabi barcha maktab xujjatlarini o'rganishi lozim. Bunga o'qituvchilarning shahsiy delalari, metodistning habarlari, kundaliklar, majlis bayonnomalaridan habardor bo'lishi nazarda tutiladi. Qadimgi gretsiyada musiqa yordamida donolikni, mardlikni tarbiyalashi mumkin deb hisoblanadi. Ҳaqiqatdan har bir sanhat insonga ruhiy tahsir ko'rsatadi. Musiqa ayniqsa imotsional tahsir etishda katta kuchga ega. SHuning uchun ko'pgina davlatlarda musiqada ko'pa yo'nalishlar bo'yicha keng foydalaniladi.

Maktablar faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotidan ukuv tarbiya jarayonini amalga oshirish va olib borishning ko'plab variantlari mavjud. Lekin ko'p texnologiyalar uz maqsadlari,maz-muni qo'llaniladigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega ularni shu umumiy belgilariga ko'ra tasnif qilish mumkin.

- qo'llanish darajasiga ko'ra;
- falsafiy asosi bo'yicha;
- asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- o'zlashtirish kontsepsiyasi bo'yicha;
- shaxsiy belgi sifatlariga kura yo'nalganligi bo'yicha
- mazmun xususiyatlari bo'yicha;
- Boshqaruv turi bo'yicha;
- Bolaga yondashuvi bo'yicha;
- Kup qo'llaniladigan metodlar bo'yicha;
- Ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

Yuqoridagi tasnif asosida misol sifatida hozirgi anhanaviy maktab ta'limini quyidagicha tasniflash mumkin.

- qullanish darajasiga kura:umumpedagogik;
- falsafiy asosi bo'yicha;majburlash pedagogikasi
- (umumiy majburiy ta'lim)
- asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha:Jamiyatning faol
- ahzolari bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalashga qaratilgan; shu bilan bir vaqtda shaxsning har tamonlama rivojlanishiga ham ehtibor qaratilgan xolda;
- o'zlashtirish kontsepsiyasi bo'yicha; asostsiativ – reflektor bo'lib,suggestiya(Namuna,misol,o'rnak ibrat ko'rsatish)ga tayangan holda.
- SHaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;

Axborotli,yahni bilim,malaka,ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan;

-mazmun xususiyatlari bo'yicha:dunyoviy, texnokratik, umumta'lim

mazmunida bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonida tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi;

-boshqaruv turi bo'yicha: anhanaviy-mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limnin texnika vositalari qo'shilgan;

-bolaga yondashuv bo'yicha:avtoritator;

-ko'p ko'llaniladigan metodlari bo'yicha:tushuntirish-illyustrtsiyalash;

-ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha: ommaviy.

SHu bilan bir vaktda,jamiyatning rivojlanishi aloxida mamlakatlarda va umuman jaxonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedagogik texnologiyalarni yaratdi.Bular ham yuqorida aytilgan

Belgilarga ko'ra quyidagicha tasnif qilinishi mumkin: hamkorlik pedagogikasi, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim,guruxli texnologiyalar va boshqalar.

2.Musiqa o'qituvchisining faoliyati.

Musiqiy tarbiyaning vazifalarini amalga oshirishda, yosh avlodni yuksak musiqiy-estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijro mahoratini yuzaga keltirishda musiqa o'qituvchisi alohida ahamiyat kasb etuvchi shaxs hisoblanadi.

O'qituvchi zimmasiga yuklanadigan bunday mashuliyatini hisobga olgan holda musiqa o'qituvchilari muntazam ravishda o'z bilimini takomillashtirib borish, xususan o'quvchilarni kuylash mahoratini o'stirib borish hayotiy zarurat ekanligini anglab olish muhimdir.

«Musiqa madaniyati» darslarida o'quvchilarning ko'rsatadigan faollar turlari ichida qo'shiq o'rganish va uni mehyoriga yetkazib kuylash ularga alohida emotsional ko'tarinkilik va zavq bag'ishlaydi. CHunki, xorda kuylash jarayonida barcha o'quvchilar o'z ovozi, kuylash qobiliyatini, hayotga bo'lgan o'z munosabatini oshkora namoyon qila oladi.Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rinni tutgan, inson shaxsiyanini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan sanhat turidir. Musiqa tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofda go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. O'quvchilarga nafosatli tarbiya berishda umumta'lim maktablaridagi, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. O'quvchilar nafosat hissini, sanhat sirlarini tushunishni va qadrlashni, sanhatdan bahramand bo'lishni, avvalo maktablarga o'rganadilar. Nafosat didini shakllantirish uchun esa, musiqa madaniyati darslari bilan bir qatorda sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. CHunki, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy va to'garak

shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa, go'zallik olamiga olib kiradi. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli tahsir ko'rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy — nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umirbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan bo'lishi kerak. Olimlardan birlari: «Odam shaxs bo'lishi uchun, u ruhiy tomopidan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb xis qilmog'i kerak» — degan edi.

Shaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning hulqiga tahsir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o'rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo'yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy hulqi, mahnaviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro'yobga chiqadi. «Far bir inson — degan edi Abu Nosir Al — Farobiy — o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va yuksak yetuklikka erishish uchun, insonlar jamoasiga extiyoj tug'iladi, shu sababli u ko'p narsalarni o'zaro yordamlashuvi orqali yetuklikka erishadi».

Bolani shaxs sifatida rivojlantirishda nasl, atrofidagi muxit, tarbiya muxim rolg' o'ynaydi. O'qituvchi bu omillarni kuzatib, o'rganib chiqib, o'quvchilarni qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go'zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini singdira borishi lozim. Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. Shu bois o'quvchilarga musiqa madaniyatini tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish, mahnaviy dunyoqarashini shakllantirish boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisini vazifasidir. Musiqa inson ruhiyatiga emotsional tahsir ko'rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy oxanglar bilan tahsir etadi, bolalarni quvontiradi, o'ylantiradi, yaxshilikka, go'zallikka yetaklaydi va nafosat olamiga olib keladi. SHunday ekan, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslariga ehtibor yanada kuchayib, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. SHu bilan birga, iqtidorli o'qituvchilarni, maktab hayotiga ommaviy va to'garak ishlariga jalb etish boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidadir. Musiqa madaniyati darslarida milliy

musiqa meroslaridan to'laqonli foydalanish va bugungi zamonaviy asarlarni musiqa darslarida qo'llash, o'qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z fanini puxta bilishi, bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasidan chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Chunki yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa o'qituvchisi yetakchi bo'lib hisoblanadi. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisini faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa madaniyati darslaridan tashqari, o'quvchilar bilan tarbiyaviy musiqali ochiq darslar o'tkazadi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanigd jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar keng mahnoda mazmunli qilib yoritilgan. Musiqa o'qituvchisi dars jarayonida qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqaga mos bolalar cholg'u asboblardan jo'r bo'lish musiqiy ritmga harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqaga qiziqтира olish, ularni musiqiy qobiliyatlarini o'stirishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqa o'quvchilarga tez tahsir etadigan ta'lim — tarbiya vositasidir. U o'qituvchilarni shaxs bo'lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy tahsir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, musiqa madaniyati darslari, avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqa o'qituvchisidan mehnat, o'z faniga muhabbat, bolalarni go'zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, musiqaga mehr va shijoat talab etadi.

3.Musiqa o'qituvchisining dars faoliyatini tuzilishi.

Maktabda har xil qo'shiq ashula o'rgatish va ijro etish musiqa tarbiyasininga sosiy formasi hamda musiqa savodi va musiqa tinglashning zaminidir.Musiqa o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim maktabining har bir sinfida o'rgatish uchun tavsiya qilinayotgan qo'shiq materiallarini puxta o'ylab chiqishi kerak. Dasturdaga kiritiladigan qo'shiqlar Qoyaviy-badiiy qiymatiga qarab tanlanmog'i, o'quvchi bolalarga tushunarli va mazmun jihatdan hilma-hil bo'lmog'i lozimdir. Masalan: Vatan xaqida, maktab hayoti, hazil mutoiba qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar, qahramonlik qo'shiqlari va hokozolar.

O'zbek xalq qo'shiqlari qatorida kompozitorlar yaratgan qo'shiqlar xam o'rganilib boriladi. Bu qo'shiqlarning hammasi bolalarning o'z Vataniga tabiatga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

O'qituvchi shunga intilish kerakki, bolalar sinfda o'rganib olgan qo'shiqlarni har tomonlama anglab, tahsirli qilib ijro eta oladigan bo'lishi kerak. Bu esa qo'shiqning qanday o'rganilganiga, o'qituvchining qo'shiqdagi badiiy obrazni nechog'li o'quvchilarga yetkazib berishiga bog'liq bo'ladi.

Qo'shiqni muvaffaqiyatli chiqishi darsga o'qituvchining yaxshi tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. O'qituvchi bolalar bilan birinchi bor o'rganiladigan qo'shiqni puxta bilishi lozim va to'qri va tahsirli kuylab berishi kerak. O'qituvchi qo'shiqni chuqur o'rganib chiqqandan keyingina uni bolalarga o'rgatishi mumkin. Xar bir qo'shiqni xatto eng oddiysini ham juda sinchiklab tahlil etish, uning G'oyaviy mazmunini bilib olish va musiqada shu mazmunning qanday ifoda vositalari bilan aks ettirilishini aniqlab olish zarur. Butun qo'shiqni ijro etish rejasi oldindan belgilab olinadi va o'qituvchining darsda o'tkaziladigan suhbatlarining mazmuni yahni qo'shiqning rang – barangliklari tovush xususiyatlari o'ylab chiqiladi. Agar og'zini yumgan holda kuylash, xor va yakkaxonlarning almashib turishi kabi ijro usullari bilan qo'shiq jarangdorligiga hilma hillik kiritish mumkin bo'lsa o'qituvchi bu usullarni qaerlarda qo'llanishi va bolalardan qaysi biri yakkaxon bo'lishi kerakligini belgilab qo'yadi. U qo'shiq mazmunini tahsirini kuchaytirish uchun qo'shiqning qaysi so'zlarini ajratib ko'rsatish va o'qtirib o'tish zarurligini mo'ljallab qo'yadi.

SHuningdek, qo'shiqlarni ijro etish texnikasini ham puxta bilib olib, qanday joylarda nafas olish qulay bo'lishini, qo'shiqning qaysi tomonlari murakkabligini, nima uchun bolalarning o'zlashtirishlari qiyinligini va qaysi tomonlarini o'zlashtirishlar oson bo'lishini aniqlash kerak. O'qituvchi qo'shiqning murakkab o'rinlarini aniqlagach, ularni o'rganishni osonlashtiradigan vositalarni topa oladi. Masalan, bu o'rinlar intonatsiya qiyinchiliklaridan iborat bo'lsa, yordamchi mashqlar tuziladi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonining bir necha asosiy paytlari bor:

a) o'qituvchining qo'shiqni ijro etishi; b) suhbat o'tkazish; v) qo'shiq tekstini o'rgatish; g) qo'shiq kuyini o'rgatish; d) o'rganilgan qo'shiqni mustahkamlash; ye) qo'shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash.

Xar qanday qo'shiqni o'rgatishda ana shunday joylarga rioya qilish shart. Bularni bajarish izchilligi esa o'rganilayotgan qo'shiqning xususiyatiga bog'liqdir.

O'qituvchining qo'shiqni ijro etishi uni o'rgatish jarayonidagi muhim bir payt hisoblanadi. O'qituvchi qo'shiqni nechog'li aniq-ravshan, tahsirli ijro etsa, bu qo'shiq o'quvchilarga shunchalik tushunarli bo'lib qoladi, qo'shiqni o'rganish ularga oson bo'lib ko'rinadi. Bolalar qo'shiqni kuchli tassurot bilan tinglashar ekan, ularning shu qo'shiqni tezroq o'rganib olgilar keladi. SHunday qilib, bolalarni jim o'tirib zo'r diqqat bilan qo'shiq tinglashga odatlantira borish kerak.

O'qituvchi qo'shiqni boshidan oxirigacha ham, qisman ham ijro etishi mumkin. Agar qo'shiq tabiat manzaralarini aks ettirsa yil fasllarini ifodalasa, unda qandaydir umumiy mazmun va kayfiyat bayon qilinadigan bo'lsa, qo'shiqning bir bandini ijro etishning o'zi kifoya qiladi, boshqa bandlarini esa kuylamasdan o'qib beriladi, xolos. Ammo ayrim qahramonlarga, tarixiy voqealarga oid qo'shiq va ashulalarda bo'lganidek, qo'shiq rivojining umumiy yo'li yaqqol mahlum bo'lsa, bolalarda yaxlit badiiy obraz taassurotini hosil qilish uchun qo'shiqni to'liq ijro etish afzalroq bo'ladi. Masalan: N.Norxo'jaevning «SHavftoliga savolim» qo'shig'i kabi asarlarning birinchi bandini ijro etish albatta mazmuni tahlil qilinadi.

O'qituvchi asarda ifodalangan mazmundan bolalarni tabiatga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Masalan, o'qituvchi N.Norxo'jaevning «Gullar manim kulganim» qo'shig'ini ijro etar ekan, bu qo'shiqda mamlakatimizdagi bolalarning juda baxtli ekanliklari, ularning istiqboli, kelajakda vatanimiz bog'u-rog'larga aylanish uchun, yana ham baxtli bo'lmoq uchun, halol mehnat qilish kerakligi, bolalarning asosiy mehnati esa – o'qish-o'rganishdan iborat ekanligi to'g'risida so'zlab berishi lozim. Undan tashqari «Yaxshi bola» qo'shig'i tinglangandan keyin, o'qituvchi hamma joyga faqat yaxshi bola kerakligi,

maqtanchoqlik yaxshi emasligi, mehnatsevarlik va kamtarlik kishiga husn berishini, dangasa va maqtanchoqlarning masxara bo'lishini va ularga nafrat bilan qaralishini aytib o'tishi kerak.

Albatta o'quvchilar o'inqoroq bo'ladilar hammavaqt ham qo'shiqni kuyi, shehri ularning xotiralarida turmaydi. Buning uchun qo'shiqning kuyini bolalarning esiga solish uchun suhbatdan so'ng uni albatta ikkinchi marta ijro etish kerak. Qo'shiq ijro etilib, uning haqida suhbat o'tkazilgandan keyin, o'qituvchi qo'shiqni bevosita o'rgatishga kirishadi. 4 sinfdan boshlab o'quvchilar alohida daftar tutib, o'rganilayotgan qo'shiqlarning tekstini yozib borishlari kerak. Boshlang'ich sinflarda qo'shiq tekstini ko'rgazmali qurollarga qarab yoki doskadagi yozuvlarga qarab o'rganish lozim va yodlab olish usulini ham qo'llash ijobiy natija beradi..

Birinchi bandning matni o'zlashtirilgandan keyin, qo'shiqning kuyini o'rgatishga kirishish mumkin. Bu faoliyat o'quvchilarning ham o'qituvchining ham diqqat ehtiborini talab etadi. Qo'shiqning murakkab joylarini ayniqsa sinchiklab o'rganish kerak. Bu paytdagi qiyinchiliklar odatlanilmagan intonatsiya (davra)lar bilan, qo'shiq kuyidagi sakrashlar bilan, alg'iteratsiya kabilarning noqulayligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

SHuningdek, kuyning ritmik tomondan murakkabligi tufayli uni o'rganish qiyinchiliklari yuz berishi mumkin. Kuyning bolalar idroki uchun murakkab bo'lgan ritmik shaklini o'zlashtirishni chapak chalib ko'rsatish yo'li bilan osonlashtirish mumkin.

Qo'shiqning mahlum bir bo'g'ini bir necha notada kuylanayotgan joylari bolalarni dam-badam qiynab turadi. Bunday joylarda shehr matni bilan kuylamay balki "lya" singari bo'g'inlar bilan kuylash mumkin. Bunday kuylash idrok etishni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Tez tempda (surhati) yozilgan qo'shiqlarni faqat sekin tempda o'rganish lozim. Aks holda talaffuz aniq o'zlashtirmay qoladi. Demak, qo'shiq palapartish ijro etilgan bo'ladi. SHu sababli kuyni yaxshi o'zlashtirgandan keyingi tempni kompozitor tomondan ko'rsatilgan darajaga sekin-asta yaqinlashtirish mumkin. Bundan tashqari tez templi qo'shiqlarni o'rganishda ularning so'zlarining juda aniq

talaffuz etilishiga erishish, qo'shiq tamomila o'rganib bo'lguniga qadar yana shunga harakat qilish zarur. Sekin yoki o'rtacha tempda yozilgan qo'shiqlarni shu asarlar ijro etilishi kerak bo'lgan tempida yoki bir muncha tezlashtirilgan tempda o'rganish lozim. Bu o'rinda boshqa bir haf bolalar tempni cho'zib, yahni qo'shiqni to'g'ri temp bilan ijro etishgagina nisbatan sustroq ijro etish istagi paydo bo'ladiki, bunga yo'l qo'ymaslik kerak. SHaxdam qo'shiqlar o'rganilganda shoshilish va hovliqish yaramaydi. Sekin aytiladigan qo'shiq ustida chaqqonlik bilan ishlash zarur, aks xolda bolalar sustlashib ketishadi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida har xil usuldan foydalanish zarur. Xar bir sinfda xushovoz, bahzan, esa musiqaga juda qobiliyatli bolalar bo'lishi tabiiydir. Ular qo'shiq ohangini o'rganishda o'qituvchining yordamchilari bo'ladilar. Sinfidagi parta qatorlari o'rtasida musobaqa uyushtirilgandek bo'lib, bolalarning qo'shiq ohangini qanchalik bilishlarini tekshirib ko'rish foydali bo'ladi. Ishning bunday usuli bolalarni aktivlashtirishga yordam beradi va ijodiy ruhlantiradi. SHuningdek, qo'shiq kuyini o'rgatish ham lozimdir. Kuyni o'rgatishning dastlabki bosqichidayoq urg'usiz bo'g'inlari bilan ohiri bo'linib qolmasligi uchun so'zlarni unli yoki undosh gruppasi bilan tugashiga diqqat qilinadi. Masalan, "Toychog'im" qo'shig'ini olaylik uning kuyi bir muncha murakkab, bunda paydo bo'ladigan sakramalar uni o'rganishni qiyinlashtiradi. (1-ilova). SHuningdek, ayrim bo'g'inlarga bir necha tovushning to'g'ri kelishi kuyni idrok etishni ancha og'irlashtiradi. Bu holda ohangni shehr matnigina emas, balki "lya", "da" kabi bo'g'inlarga moslab kuylash mumkin. SHundagina har bir tovush anglab olinadi. Bundan tashg'ari bu o'rinda unli tovushning aslida ikki baravar oshishini bolalarga tushuntirib berish lozim.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tadqiqot davrida O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorat bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblaniladi. Musiqa sanhatiga ehtibor berish, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga qo'shiqni to'g'ri ijro etish naqadar kafiyyatni ko'ratishi va estetik zavq berishi uchun albatta ilg'orish tajribalardan o'rnak olishni talab etadi. Buning uchun albatta musiqa dars faoliyatlarini, jumladan; qo'shiqlarni xarakterini har hil bo'lishini tushuntirish musiqalar xaqida, musiqa nazariyasi xaqida qo'proq mahlumot berish va qo'shiqlarni badiiy ijro etish, unga puxta tayyorgarlik ko'rish ijobiy tahsir ko'rsatadi. SHundagini o'quvchilarda darsga nisbatan zavqlanish, qiziqish hissi paydo bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

SHu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Xozirga kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standarlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Ijobiy natijaga erish uchun reja bilan ishlash va nazariyaga ehtibor berish va topshiriqlarni birin –ketin berish zarurligini tushundim. Yuqorida aytib o'tilgan tartibda ish faoliyatni olib borish lozim. Musiqa darslarida qo'shiq o'rgatish metodlarini muntazam ravishda mashg'ulotlarda qo'llash va musiqa o'qituvchisiga bo'lgan zamonaviy talablarga ehtibor bilan qarash, o'rganiladigan qo'shiqlarni mazmunini albatta tahlil etishni o'quvchilarga to'g'ri tushuntira olishimiz o'z bilimimizni muntazam kengaytirib borishimiz lozimdir. Eng muhimi musiqa madaniyati darslarida interfarol metodlarini qo'llab amaliyotga joriy etilgandagina mavzular

chuqur idrok etiladi va dars faoliyati mazmunlari orqali hayotni o'quvchilar tassavvur etadilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston, 1998 y.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi T.SHarq 1999 y.
- 3.I A.Karimov Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch.T. 2008 yil
4. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi.
- 5 Nishonova G., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.
6. O.To'raeva K.Xoliqberdiev Pedagogika. T.O'qituvchi 2001 y.
7. Tursunov G.Xalq ta'limining dolzarb muammolari. T. O'qituvchi 1996 y.
8. Teshaboev T. Jamiyatda o'qituvchini o'rni.T. 2000 y.
9. Hasanboev J.Yu. Pedagogika nazariyasi. Ma'ruza matni. T. 2002 y.
10. Zimina A.N.Osnovq muzqkalg'nogo vospitaniya i razvitiya. M. 2000 y.
11. Fayziev O.O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.
- 12Internet saytlari keltirilsin.
- 13.www. Ziyo/ net
- 14.http//www//urairti//ru